



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta‘lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta‘minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me‘zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta‘siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta‘limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun‘iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta‘sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

7. Begalov B.A., Abdullayev M.K. Raqamli iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Iqtisodiyot, 2023.
8. Nazarov R.I. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish // Zenodo ilmiy maqolalar bazasi. 2022. (Zenodo)
9. Miyassarova M.A.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligini ta’minlash // Ilmiy maqola. 2021. (КиберЛенинка)

UDK: 332.14

**JIZZAX VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH
YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В
ДЖИЗАХСКОМ РЕГИОНЕ**

DIRECTIONS FOR DEVELOPING TOURISM INFRASTRUCTURE IN JIZAKH REGION

Muxiddinov Tal’at Shaydullo o‘g‘li

TMC instituti, “Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya” kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganiladi. Viloyat yalpi hududiy mahsuloti, tarkibiy o‘zgarishlari, investitsiya faoliyati va turizm infratuzilmasining hozirgi holati rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm infratuzilmasi, mintaqaviy iqtisodiyot, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar, mehmonxona, iqtisodiy mexanizm, Jizzax viloyati, davlat-xususiy sheriklik.

В данной статье в научно-практическом аспекте исследуются направления совершенствования экономического механизма развития туристической инфраструктуры Джизакской области. На основе официальных статистических данных анализируются валовой региональный продукт, его структурные изменения, инвестиционная деятельность и современное состояние туристической инфраструктуры региона. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по совершенствованию экономического механизма развития туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, региональная экономика, валовой региональный продукт, инвестиции, гостиничный фонд, экономический механизм, Джизакская область, государственно-частное партнёрство.

This article examines, from a scientific and practical perspective, the directions for improving the economic mechanism for developing tourism infrastructure in the Jizzakh region. Based on official statistical data, the gross regional product, its structural changes, investment activity, and the current state of tourism infrastructure are analysed. Based on the research findings, practical recommendations are developed for improving the economic mechanism for developing tourism infrastructure.

Keywords: tourism infrastructure, regional economy, gross regional product, investments, hotel fund, economic mechanism, Jizzakh region, public-private partnership.

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm jahon iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyadan chetda qolmay, oxirgi yillarda

turizm sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakat miqyosida xorijiy sayyohlar soni 2017-yildagi 2,7 million nafardan 2024-yilda 10,1 million nafarga yetdi [1], ya’ni 7 yil ichida 3,7 barobarga o’sdi. Bu ko’rsatkich O‘zbekistonning xalqaro turizm xaritasida o‘z o‘rnini mustahkamlab borayotganidan dalolat beradi. Mamlakat miqyosida erishilayotgan yutuqlarga qaramay, alohida mintaqalar, jumladan Jizzax viloyatining turizm salohiyati hali to‘liq ro‘yobga chiqarilmagan. Viloyat o‘ziga xos geografik o‘rni bilan — O‘rta Osiyoning «vohasi» deb nom olgan ushbu hudud Aydarko‘l ko‘li, Zamin milliy tabiat bog‘i, Baxmal va G‘allaorol tumanlarining tog‘ massivlari, Arnasoy ko‘llari tizimi kabi noyob tabiiy-rekreatsion resurslarga ega. Biroq turizm infratuzilmasining sustligi va iqtisodiy mexanizmning nomukammalligi ushbu salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon bermayapti. Yuqoridagi muammolarni hisobga olgan holda ushbu maqolaning maqsadi — Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmini rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslab berish.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilangan: turizm infratuzilmasi va iqtisodiy mexanizmning nazariy mohiyatini aniqlash; viloyat iqtisodiyotining hozirgi holatini tahlil qilish; turizm infratuzilmasining hozirgi muammolarini aniqlash; iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish bo‘yicha yo‘nalishlarni ishlab chiqish. Turizm infratuzilmasi — sayyohlik xizmatlarini samarali ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik obyektlar, transport yo‘laklari, joylashtirishning turli vositalari, oziq-ovqat va ko‘ngilochar xizmatlar hamda axborot tizimlari yig‘indisidir. Iqtisodiy adabiyotlarda turizm infratuzilmasi odatda ikki yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi: umumiy infratuzilma (transport, kommunikatsiya, energetika, suv ta‘minoti) va ixtisoslashgan infratuzilma (mehmonxonalar, xostellar, sayyohlik markazlari, muzeylar, ekskursiya tizimlari). Iqtisodiy mexanizm — bu muayyan sohaning faoliyatini tartibga solish va rivojlantirish uchun ishlatiladigan iqtisodiy vositalar, usullar va rag‘batlar tizimidir. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmi quyidagi asosiy tarkibiy unsurlarni o‘z ichiga oladi: davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi — me‘yoriy-huquqiy baza, litsenziyalashtirish, standartlashtirish va sertifikatlash; moliyalashtirish va investitsiya mexanizmi — byudjet mablag‘lari, bank kreditlari, xususiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli; narxlash va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi — soliq imtiyozlari, subsidiyalar, arzonlashtirilgan kreditlar, grant mablag‘lari; monitoring va baholash mexanizmi — xizmat sifati nazorati, statistik kuzatuv, audit.

O‘zbekistonda ushbu mexanizmning huquqiy poydevori Prezidentning 2019-yil 5-yanvardagi "O‘zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5611-son Farmoni [2] bilan yaratilgan bo‘lib, "O‘zbekiston — 2030" strategiyasida [3] 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga yetkazish vazifasi belgilangan. Mazkur strategik maqsadlarga erishish ko‘p jihatdan hududlardagi turizm infratuzilmasini rivojlantirish darajasiga bog‘liq. Jizzax viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2010-yildagi 2 215,3 mlrd so‘mdan 2024-yilda 43 545,9 mlrd so‘mga, 2025-yilda esa 52 956,7 mlrd so‘mga yetdi [4]. Ushbu ko‘rsatkich 2010—2025-yillar oralig‘ida 23,9 barobarga o‘sgan. YHM o‘sish sur‘ati: 2021-yilda 108,2%, 2022-yilda 104,9%, 2023-yilda 106,3%, 2024-yilda 104,6%, 2025-yilda 108,2%ni tashkil etdi. Viloyat YHM tarkibidagi o‘zgarishlar ayniqsa diqqatga sazovordir. 1-jadvalda ko‘rsatilganidek, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ulushi 2010-yildagi 4,2%dan 2024-yilda 40,6%ga tushgan, sanoat ulushi esa 12,7%dan 22,5%ga ko‘tarilgan. [5]

1-jadval

Jizzax viloyati YHM tarkibi (jamiga nisbatan, %) [6]

Tarmoqlar	2010	2015	2020	2024
Qishloq, o‘rmon, baliqchilik xo‘jaligi	54,2	54,3	47,8	40,6
Sanoat (qurilish bilan)	12,7	13,0	21,3	22,5
shu jumladan: sanoat	7,5	7,8	12,1	16,2

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Tarmoqlar	2010	2015	2020	2024
qurilish	5,2	5,2	9,2	6,3
Xizmatlar, jami	33,1	32,7	30,9	36,9
savdo, yashash va ovqatlanish	4,9	5,7	8,8	13,4
transport, axborot va aloqa	4,8	5,3	3,4	3,9
boshqa xizmat tarmoqlari	23,4	21,7	18,7	19,6

1-jadval tahlilidan ko‘rinib turganidek, xizmatlar sektori 2010-yildagi 33,1%dan 2024-yilda 36,9%ga o‘sgan. Ayniqsa savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ulushi 4,9%dan 13,4%ga o‘ishi muhim ahamiyatga ega — bu turizm va mehmonxonachilik sohalarining viloyat iqtisodiyotida tobora ko‘proq o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi. Aholi jon boshiga YHM o‘sish sur‘ati bo‘yicha Jizzax viloyatida: 2023-yilda 104,0%, 2024-yilda 102,5%, 2025-yilda 106,1% ko‘rsatkich qayd etildi. [7] Bu ko‘rsatkichlar mamlakat o‘rtacha sur‘atlari bilan raqobatlasha olsa-da, viloyatning to‘liq iqtisodiy salohiyatini ochish uchun turizm sektoriga e‘tiborni kuchaytirish zarur. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bo‘yicha Jizzax viloyatida sezilarli ijobiy dinamika kuzatilmoqda: 2018-yilda 158,1%, 2019-yilda 194,9% o‘sish qayd etildi. COVID-19 pandemiyasi ta‘sirida 2021-yilda bu ko‘rsatkich 72,4%ga tushib qoldi. Biroq investitsiya faolligi keyinchalik tiklanib, 2023-yilda 134,1%, 2024-yilda 134,9% o‘sish ko‘rsatdi. [8] Tumanlar kesimida 2024-yilda Sharof Rashidov (456,7%), Do‘stlik (265,6%), Arnasoy (212,1%) tumanlarida investitsiyalar o‘ishi ayniqsa yuqori bo‘ldi. O‘zbekistonda turizm sohasida 2017-yildan boshlab tizimli islohotlar amalga oshirildi. (2-jadval)

2-jadval

O‘zbekistonda turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari [9]

Ko‘rsatkich	2019	2021	2022	2023
Xorijiy sayyohlar (ming nafar)	6 748,5	1 881,3	5 232,8	6 626,3
Turizm xizmatlari eksporti (mln \$)	951,0	296,4	—	3 400,0
Joylashtirish vositalari (birlik)	—	—	—	5 477

2-jadvaldan ko‘rinib turganidek, COVID-19 pandemiyasi xorijiy sayyohlar sonini 2019-yildagi 6 748,5 ming nafardan 2021-yilda 1 881,3 ming nafarga — 3,6 barobarga — kamaytirdi. 2022-yildan boshlab jadal tiklanish boshlandi: 2023-yilda 6 626,3 ming nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 10,1 million nafarga yetdi. Turizm xizmatlari eksporti 2019-yildagi 951 million dollardan 2023-yilda 3 400 million dollarga, ya‘ni 3,6 barobarga oshdi. 2023-yilga kelib respublika bo‘ylab joylashtirish vositalari soni 5 477 taga, joylashtirishning barcha vositalaridagi o‘rinlar soni esa 142 720 taga yetdi. Jizzax viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalarining soni dinamikasi 3-jadvalda aks ettirilgan.

3-jadval

Jizzax viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni, birlik [10]

Hudud	2014	2016	2019	2022	2024
Jizzax viloyati, jami	28	33	40	33	44
Jizzax shahri	22	21	32	26	27
Zomin tumani	3	3	2	7	13
Forish tumani	—	4	—	—	3

Hudud	2014	2016	2019	2022	2024
Mirzacho‘l tumani	1	2	1	—	1
Boshqa tumanlar	2	3	5	—	—

3-jadval tahlili quyidagi muhim xulosalarga imkon beradi. Birinchidan, joylashtirish vositalari soni beqaror dinamika ko‘rsatmoqda: 2018-yildagi 45 tadan 2022-yilda 33 taga tushib, 2024-yilda 44 taga ko‘tarildi. Ikkinchidan, mavjud infratuzilma hududiy jihatdan notekis taqsimlangan: 44 ta ob‘ektning 27 tasi (61,4%) Jizzax shahrida, 13 tasi (29,5%) Zomin tumanida joylashgan. Bu esa aholisi va turizm resurslariga ega bo‘lgan ko‘plab tumanlar — Arnasoy, Zarbdor, Zafarobod, Yangiobod — amalda mehmonxona xizmatlari qolayotganini ko‘rsatadi. Zomin tumanining jadal rivojlanishi (2014-yildagi 3 ta obyektdan 2024-yilda 13 taga o‘shish) Zamin milliy tabiat bog‘i atrofidagi ekoturizm faoliyatining kengayishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishning istiqboliligini yana bir bor tasdiqlaydi. Statistika agentligining 2022-yil 1-yanvar holatiga oid ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston bo‘yicha turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlar soni 288 tani tashkil etgan, ulardan 61,8% Toshkent shahrida joylashgan [11]. 2024-yilda esa sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar soni 3 581 taga yetdi. [12] Biroq Jizzax viloyatida bu ko‘rsatkich sezilarli past bo‘lib qolmoqda. Sayyohlar oqimi bo‘yicha, 2019-yilda Jizzax viloyatidagi mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirishning boshqa vositalarida 38 984 nafar shaxs joylashtirildi, ulardan 1 683 nafari MDH davlatlaridan va 1 675 nafari uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan. [13] 2020-yilda esa viloyatdagi 11 ta turistik firma 18 500 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko‘rsatdi.

Yuqoridagi tahlil Jizzax viloyatining turizm infratuzilmasidagi asosiy muammolarni aniqlab beradi. Birinchidan, joylashtirishning hududiy jihatdan notekis taqsimlanishi — mehmonxonalarining aksariyati Jizzax shahri va Zomin tumanida to‘plangan. Ikkinchidan, turistik firmalar sonining respublika ko‘rsatkichiga nisbatan nihoyatda kamligi. Uchinchidan, turizm turlarining yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi. To‘rtinchidan, raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi. Beshinchidan, malakali kadrlar yetishmasligi. Amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslanib, Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi. Jizzax viloyatida umumiy investitsiya faolligi yuqori bo‘lishiga (2024-yilda 134,9% o‘shish) qaramay, turizm infratuzilmasiga yo‘naltiriladigan sarmoyalar hali yetarli emas. Quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: Zamin, Zomin, Baxmal va Aydarko‘l qirg‘og‘idagi Mirzacho‘l tumanlarida turizm klasterlarini tashkil etish va investorlarga soliq imtiyozlari berish; davlat-xususiy sheriklik (PPP) modelini kengaytirish: davlat yer ajratadi va kommunikatsiyalarni ta‘minlaydi, xususiy investor qurilish va foydalanishni amalga oshiradi; «yashil turizm» loyihalari uchun xalqaro ekologik grantlar va moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish. Mehmonxona infratuzilmasi Jizzax shahri va Zomin tumanida to‘planganini hisobga olib, quyidagi yo‘nalishlar ustuvor sanalishi zarur: Aydarko‘l qirg‘og‘ida (Mirzacho‘l, Arnasoy tumanlari) ko‘l turizmi va qushlarni kuzatishga ixtisoslashtirilgan dam olish maskanlari hamda o‘tov lagerlarini tashkil etish; Baxmal va Forish tumanlarida tog‘ turizmi va «glempinq» formatidagi obyektlarni qurish uchun yer uchastkalarini ajratish va ruxsatnomalar olishni soddalashtirish; G‘allaorol, Forish, Mirzacho‘l tumanlaridagi «Marjonsuv», «Birlashgan», «Gagarin» sanatoriylarining balneologik xizmatlarini turistik infratuzilma bilan birlashtirish. Jizzax viloyatining geografik va tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, quyidagi turizm yo‘nalishlarini maqsadli rivojlantirish tavsiya etiladi: ekoturizm: Zamin milliy tabiat bog‘i (1976-yilda tashkil etilgan, 48 ming gektarli) va 78 ming gektarlik qo‘riqxonaga hamda «Zomin» sanatoriysi asosida; ko‘l va suv turizmi: Aydarko‘l-Tuzkon-Arnasoy ko‘llari tizimi — qushlarni kuzatish, baliq ovlash, qayiqda suzish, bahor-yoz bahori flamingolari; ziyorat turizmi: Sa‘d ibn Vaqqos, Usman ota, Novqa ota, Xo‘jamushkent ota va boshqa ziyoratgohlar asosida; agro-va etnografik turizm: viloyatning qishloq hududlarida mahalliy turmush tarzini o‘rganish, hunarmandchilik ustaxonalari; sog‘lomlashtirish (wellness) turizmi: tog‘ yon bag‘irlaridagi shifobaxsh buloqlar — temir, oltingugurt, vodorod, radiy va boshqa minerallar o‘z ichiga olgan

termal suvlar asosida. Turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi — raqamli texnologiyalar. Viloyat miqyosida quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: Jizzax viloyati turizm portalini (veb-sayt va mobil ilova); mehmonxonalar, diqqatga sazovor joylar, ekskursiyalar bo'yicha onlayn bron qilish; QR-kodli turistik marshrut ko'rsatkichlari: tarixiy va tabiiy obyektlarda ko'p tilli audio-gid tizimi; viloyatning xalqaro turizm platformalarida (Booking.com, TripAdvisor va boshqalar) vakilligini kuchaytirish. Viloyatda turistik firmalar sonini oshirish va kadrlar malakasini yuksaltirish uchun: yangi turistik firmalar ochishni rag'batlantirish: dastlabki 2 yilga soliq yukini yengillashtirish, tadbirkorlik inkubatorlari tomonidan qo'llab-quvvatlash; gid-ekskursovodlar tayyorlash: Jizzax davlat pedagogika universiteti va kasb-hunar kollejlari negizida qisqa muddatli sertifikat kurslarini yo'lga qo'yish; xalqaro tajriba almashish dasturlari orqali kadrlar malakasini oshirish. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida qabul qilingan chora-tadbirlar samaradorligini baholash uchun yagona monitoring tizimini joriy etish zarur. Tizim quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi lozim: mehmonxona to'ldirilish koeffitsiyenti, sayyohlar o'rtacha viloyatda qolish muddati, turizm sohasida yaratilgan ish o'rinlari soni, turizm xizmatlari ulushining YHM tarkibidagi dinamikasi. Ushbu ko'rsatkichlarni har chorakda tahlil qilish va ommaga e'lon qilish iqtisodiy mexanizmni operativ moslashtirib borishga imkon beradi.

Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga kelishga imkon beradi.

Birinchidan, Jizzax viloyati iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlamoqda: YHM 2025-yilda 108,2% o'sdi, asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 134,9% o'sdi. YHM tarkibida xizmatlar sektorining ulushi — ayniqsa savdo, yashash va ovqatlanish — sezilarli darajada o'sib borayotgani turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy poydevor yaratmoqda.

Ikkinchidan, viloyatdagi turizm infratuzilmasi hali yetarli darajada rivojlanmagan: 44 ta mehmonxonaning 27 tasi Jizzax shahrida to'plangan, ko'plab tumanlar mehmonxona xizmatlari qolmoqda. 2019-yilda mehmonxona va shunga o'xshash vositalarda jami 38 984 nafar shaxs joylashtirilgan bo'lsa, respublika miqyosida 2023-yilga kelib 6,6 million xorijiy sayyoh kelganini hisobga olsak, Jizzax viloyatining bu oqimdagi ulushi hamon nihoyatda past.

Uchinchidan, O'zbekistonda xorijiy sayyohlar soni 2024-yilda 10,1 million nafarga yetishi Jizzax viloyati uchun ham yirik imkoniyat hisoblanadi. Viloyatning noyob tabiiy resurslari — Aydarko'l ko'li, Zamin milliy tabiat bog'i, Baxmal tog'lari, shifobaxsh mineral suvlar — to'g'ri iqtisodiy mexanizm orqali jadal rivojlantirilishi mumkin bo'lgan ekologik va sog'lomlashtirish turizmi salohiyatini tashkil etadi.

To'rtinchidan, tavsiya etilayotgan 6 yo'nalish: PPP orqali investitsiyalarni jalb qilish, joylashtirishning moddiy bazasini hududiy kengaytirish, turizm turlarini diversifikatsiya qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, turistik firmalar va kadrlar sonini oshirish, monitoring tizimini takomillashtirish — birgalikda Jizzax viloyatini O'zbekistonning yangi raqobatbardosh turizm markaziga aylantirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5611-sonli Farmoni. — <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi haqida PF-158-son Farmoni. — <https://lex.uz>
3. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. So'nggi sakkiz yilda O'zbekistonda turizm qanday rivojlandi? — <https://www.xabar.uz>, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekistonga 2023-yilda 7 millionga yaqin sayyoh keldi. — <https://www.gazeta.uz>, 2024-yil 21-fevral.
5. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Jizzax viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi (joriy narxlarda, mlrd so'm). — <https://jizzaxstat.uz>
6. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Jizzax viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi (jamiga nisbatan foizda). — <https://jizzaxstat.uz>
7. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida). — <https://jizzaxstat.uz>

8. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (o‘shish sur‘ati, % da). — <https://jizzaxstat.uz>
9. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. Mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari (obyektlar) soni, birlik. — <https://jizzaxstat.uz>
10. Mirzayeva A.Z., Karimjonova M. Jizzax viloyatining turistik salohiyati. — Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, 2023. — <https://jdpu.uz/jizzax-viloyatining-turistik-salohiyati/>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. — <https://stat.uz>, 2022.
12. O‘zbek turizmi 2024 yil qanday yutuqlarga erishdi? — O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). — <https://uza.uz>, 2024-yil 31-dekabr.

UDK: 331.45

**IJTIMOIIY VA EKOLOGIK AUDIT: BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA
ZAMONAVIIY NAZORAT MEKANIZMI**

**СОЦИАЛЬНЫЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ АУДИТ: СОВРЕМЕННЫЙ МЕХАНИЗМ
КОНТРОЛЯ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ**

**SOCIAL AND ECOLOGICAL AUDIT: A MODERN CONTROL MECHANISM FOR
ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT**

Saydxodjayeva Nigoraxon Ibaydullayevna
“University of economics and pedagogy”NOTM
Iqtisodiyot kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy va ekologik audit tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda zamonaviy iqtisodiyotda tutgan o‘rni kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalar faoliyatida ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlikni baholash mexanizmlarini o‘rganishdan iborat. Ish jarayonida institutsional yondashuv, tizimli tahlil hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy audit, ekologik audit, barqaror rivojlanish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat, ESG, audit tizimi, ekologik xavf, monitoring.

В статье комплексно анализируются понятие социального и экологического аудита, его теоретические основы и место в современной экономике. Основная цель исследования — изучение механизмов оценки социальной ответственности и экологической устойчивости в деятельности предприятий. В ходе работы использовались институциональный подход, системный анализ и сравнительные методы.

Ключевые слова: социальный аудит, экологический аудит, устойчивое развитие, корпоративная социальная ответственность, ESG, система аудита, экологический риск, мониторинг.

This article comprehensively analyzes the concept of social and environmental audit, its theoretical foundations, and its role in the modern economy. The main objective of the study is to study the mechanisms for assessing social responsibility and environmental sustainability in the activities of enterprises. The study used an institutional approach, systems analysis, and comparative methods.

Keywords: social audit, environmental audit, sustainable development, corporate social responsibility, ESG, audit system, environmental risk, monitoring.